

KOSMETIKA VOSITALARINING KIMYOVIY TARKIBI VA ODAM ORGANIZMIGA TA'SIRI

Odilova Mohizar

Annotatsiya: Kosmetologiya tadqiqotlari, asosan, inson qiyofasini yaxshilash va chiroyli qilish uchun kosmetik vositalarni muntazam ravishda qayta ko'rib chiqishdir. Zamonaviy kosmetika ishlab chiqarishning zamonaviy texnikasi kosmetologiya farmatsiyasi, farmatsevtika texnologiyasi, biologiya, mikrobiologiya, kimyo, endokrinologiya, gistologiya, psixologiya va dermatologiya kabi turli ilmiy tadqiqotlarga asoslangan. Ushbu tadqiqotlar preparatlarni o'rganish, shakllantirish, tayyorlash va nazorat qilishda samarali bo'ladi. Ushbu maqolada kosmetika vositalarining kimyoviy tarkibi va odam organizmiga ta'siri haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Kosmetologiya, kosmetika, niqob, paraben va silikonlar, sifatsiz kosmetika, teri muammolari.

Kosmetika (yun. kosmetike — pardoz qilish, bezash san'ati) — kishilar qiyofasini xushro'ylashtirish chora tadbirdari hamda vositalari majmui. Kosmetika juda uzoq, tarixga ega. Miloddan 200 yil avval Misrda pardoz uchun har xil materiallar va dori-darmonlardan foydalanishgan. Kosmetik mahsulotlarning tarkibi va kimyoviy tavsifini aniqlash uchun o'tkaziladigan fizik-kimyoviy testlar xususiyatlarni tavsiflash, formuladagi xatti-harakatlarni aniqlash va haqiqiy foydalanish sharoitida komponentlarning ishlashini o'lchash uchun ishlatiladi. Yangi komponentni ishlab chiqishning dastlabki bosqichlarida amalga oshiriladigan ushbu operatsiyalar komponent strukturasini optimallashtirish yoki uning tarkibini yakuniy mahsulot foydalanuvchilari kutgan funksionallik va xatti-harakatlarga moslashtirish uchun zarurdir. Kosmetik mahsulotlarning pH qiymati, yopishqoqligi, harorat barqarorligi yoki santrifujdan keyingi oddiy muntazam monitoringidan tortib, yorug'likning orqaga tarqalishi kabi usullargacha, fizik-kimyoviy o'lchovlarning kombinatsiyasi ingredientlarning formulaning barqarorligi va mustahkamligiga qanday ta'sir qilishini kuzatish uchun ishlatiladi. Kosmetik maxsulotlarning kimyoviy tarkibi jihatidan zarur shart-sharoitlarga javob berishini va ularning inson salomatligiga ta'sirini nazorat qilishni ta'minlash maqsadida huquqiy me'yorlar qabul qilinadi va mezon va standartlar mahalliy va xorijiy tashkilotlar tomonidan belgilanadi. Kosmetik mahsulotlarni loyihalash va ishlab chiqarishda ma'lum qoidalar va mezonlarga rioya qilish kerak. Ushbu xavfsizlikni ta'minlash uchun ilg'or laboratoriyalarda

VOLUME-2, ISSUE-4

bir qator sinovlar o'tkaziladi. Ushbu testlardan biri bu Challenge testidir. Ushbu testlar kosmetik mahsulotlar tarkibida ishlataladigan konservantlarning antimikrobiyal samaradorligini aniqlash uchun o'tkaziladi. Kosmetik maxsulotlardan foydalanish va saqlash muddati davomida mikrobial ifloslanish bo'lmasligi kerak. Kosmetik maxsulotlarning formulalarida mavjud bo'lgan tarkibiy qismlar konservant ta'siriga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Hozirda juda ko'p "Kosmetik vositalar" tarkibida zararli bo'lgan moddalar mavjud.Ulardan eng ko'p qo'shiladigani paraben va silikonlardir. Nega kosmetik vositalar tarkibiga bu moddalar qo'shiladi? Silikonlar kosmetik vositalar ichida mikroblar paydo bo'lmasligini va ko'paymasligini oldini oladi. Parabenlar - Tarkibi o'zgarib tez buzulmasligi uchun. Hech qanday zarari yo'q-ku deyishingiz mumkin. Yo'q aksincha, teri qatlamiga bunday vazifani bajaruvchi kimyoviy vositalar kerak emas.Bu faqat kosmetika tarkibi uchun, teri uchun emas. Teri uchun vitaminlarga boy foydali mahsulotlar qo'shilgan kosmetik vositalarga kerak xolos. Ko'pincha, mutaxassis bilan maslahatlashmasdan, internet yoki biror kimdan eshitgan uy sharoitida qilinadigan niqoblarni yuzlarida sinab ko'rishadi.Afsuski,Uy sharoitida qilingan niqoblar tezda effekt bermaydi.Ular uzoq vaqt davomida ta'sir ko'rsatadi. Ishonavering, bunday kosmetika sizga foydadan ko'ra ko'proq zarar yetkazishi aniq! Va bu zarar ancha jiddiy hol : - Kuchli allergik reaktsiya - Tarkib arzon bo'lganligi tufayli kimyoviy zaharlanish - Organizmda zararli og'ir moddalar to'planishi - Toshma va teri kasalliklari - Ichki azolarga tasiri (teri orqali so'rilib yoki nafas yo'li orqali) Bundan tashqari bir qancha kosmetologik muammolarni keltirib chiqaradi: - Ajinlar paydo bo'lishi - Yuz osilishi (ptoz) - Dog'lar tushishi - Yuz rangining xiralashishi kabi muammolarga duch kelishadi. Kosmetik vositalar xarid qilayotganimizda albatta,krem tarkibi yozilgan qismiga alohida e'tibor bering.Ko'proq yuzimiz uchun zaruriy bo'lgan vitaminlarga boy mahsulotlardan foydalaning.Va yana tanlayotgan kremingiz teringiz turiga mos kelishini inobatga oling. Terini yoshlikdan, ya'ni 20 yoshdanoq tashqi muhit ta'sirlaridan himoya qilgan holda parvarishlash lozim. Buning uchun kunduzgi va kechki kremlarni tõgri tanlashingiz lozim bõladi. Tarkibida C, E vitamini mavjud bõlgan kremlardan foydalanishingiz mumkin.

Ayol va qizlarning kosmetikalari orasida muddati o'tgan va yaroqsiz bo'lgan vositalar ko'plab topilishi aniq. Yaroqlilik muddati o'tishidan tashqari banka yoki qopqog'ining shunchaki ochiq qolishi ham ularning yaxshi samara bermasligiga sabab bo'lmasligi mumkin. Aksariyat ayollar yillar davomida teri muammolaridan aziyat chekishi, mutaxassislar, xususan dermatologlarga qatnab charchashi mumkin. Ammo

aksariyat hollarda ular muammoning kosmetik vositaning vaqtini o'tgani bilan bog'liq ekanini xayoliga ham keltirmaydi.

Xulosa: Nafaqat sifatsiz kosmetikalar balki, noto'g'ri tanlangan muolajalar ham, yuzingizga natija berishi o'rniغا, ularga dog' va tezda ajin tushirib, terini shikastlaydi.Kosmetika tanlayotganimizda yuz turiga va yoshiga mos keluvchi kosmetikalar tanlash zarur. Ular: (normal, quruq, yog'li, qarish uchun mo'ljallangan kosmetikalar, namlik, yoshartirish, yoshlar terisidagi muammolar uchun) kabi mahsulotlar kiradi. Albatta,yuzni oziqlantiruvchi,namlovchi kremlardan foydalanishingiz sizning teringiz salomatligiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.Shu bilan birgalikda,quruq va yog'li teri egalari uchun ham alohida parvarish vositalari mavjud.

ADABIYOTLAR

1. Вережников В.Н., Гермашева И.И., Крысин М.Ю. Коллоидная химия поверхностью активных веществ: Учебно-методическое пособие // Вережников В.Н., Гермашева И.И., Крысин М.Ю.-Лань, 2015г.-304с.
2. Волков В.А. Коллоидная химия. Поверхностные явления и дисперсные системы. Лань, 2015г.-672 с.
3. Холмберг К., Йёнссон Б., Кронберг. Б., Линдман Б. Поверхностно-активные вещества и полимеры в водных растворах. Издательство: "Лаборатория знаний", 2015. -532
4. Z. Salimov. Kimyoviy texnologiyaning asosiy jarayonlari va qurilmalari. 1.2-tomToshkent. O'zbekiston 1995 y. 238 b,